

Ro'yxat raqami: I-133
Ro'yxatga olingan sana: 25.12.2025
yil.

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati
Boshqaruvining
2025-yil 25-dekabrdagi
25-12/2-sonli yig'ilish bayonnomasi
bilan tasdiqlangan

«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATIDA
MOLIYALASHTIRISHLARNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH
TARTIBI

Toshkent – 2025-yil.

Mazkur “Open bank” aksiyadorlik jamiyatida moliyalashtirishni restrukturizatsiya qilish tartibi (keyingi o‘rinlarda Tartib deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga va amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlariga va “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Moliyalashtirishni restrukturizatsiya qilish Tartibi “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda Bank deb yuritiladi) ichki qoidasi bo‘lib, moliyaviy qiyinchilikka uchragan, fors-major yoki murakkab hayotiy holatlarga duch kelgan qarzdorlar uchun moliyalashtirish majburiyatlarini qayta ko‘rib chiqish (restrukturizatsiya qilish) tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Tartib – qarzdorning bank tomonidan moliyalashtirilgan mablag‘larni qayta to‘lashga qodirligini tiklashga ko‘maklashish hamda barqarorlikni ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

2-bob. Restrukturizatsiya tushunchasi va shakllari

3. Moliyalashtirishni restrukturizatsiya qilish – bu qarzdorning arizasi hamda bankning moliyaviy tahlili asosida moliyalashtirish yuzasidan tuzilgan shartnoma (keyingi o‘rinlarda shartnoma deb yuritiladi)dagi ayrim shartlarni o‘zgartirish yoki qo‘shimchalar kiritish orqali qarzdorlikni yengillashtirish choralari hisoblanadi.

4. Ushbu Tartib doirasida restrukturizatsiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
moliyalashtirilgan mablag‘lar bo‘yicha to‘lovlarining muddatini uzaytirish;
moliyalashtirilgan mablag‘lar bo‘yicha to‘lanadigan Bank daromadi miqdoriga o‘zgartirish kiritish yoki uni kapitalizatsiya qilish;
ta‘minot turining o‘zgartirilishi (qarzning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta‘minotdan chiqarilgan holatlar bundan mustasno);
qayta moliyalashtirish;

5. Shartnoma shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga (restrukturizatsiyaga) asos bo‘ladigan holatlar quyidagilar hisoblanadi:

qarzdor yoki uning oila a‘zolari (ota-onalar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar)dan birining sog‘lig‘i bilan bog‘liq og‘ir holatlar (og‘ir kasallik, uzoq muddatli davolanish, mehnat qobiliyatining vaqtincha yo‘qolishi)ning yuzaga kelishi;

homiladorlik va tug‘ish ta‘tiliga chiqishi;

tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, yong‘in, qurg‘oqchilik va boshqalar)ning yuzaga kelishi;

epidemiya yoki favqulodda vaziyatlar oqibatida faoliyatning vaqtincha to‘xtatilishi;

ish joyining qisqarishi;

biznes faoliyatida fors-major holatlari (ishlab chiqarish vositalarining ishdan chiqishi, xom-ashyo yetishmovchiligi, majburiy to‘xtab qolish) yuzga kelishi;

biznes faoliyatida mavsumiylik yoki vaqtinchalik ishlab chiqarish (xizmat

ko'rsatish) uzilishlari yuzaga kelishi;

bozor sharoitlarining o'zgarishi natijasida qarzdorning to'lov qobiliyati pasayishi;

davlat organlari tomonidan joriy etilgan cheklovlar qarzdorning faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi;

qarzdorning moliyaviy ahvolini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lishi.

6. Quyidagi holatlarda shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqishga yo'l qo'yilmaydi:

moliyalashtirilgan mablag'larni maqsadsiz ishlatilgan deb topilgan bo'lishi;

muddati o'tgan sug'urta polislar mavjudligi hamda shartnomaning qarzdor tomonidan bajarilmagan shartlari mavjudligi;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qarzdorga ajratilgan moliyalashtirish yuzasidan jinoyat alomatlari bor deb topilgan bo'lishi;

moliyalashtirilgan mablag'lar bo'yicha to'lovlarining tegishli balansdan tashqari hisobvaraqa (95413) o'tkazilganligi;

xalqaro moliya institutlari va boshqa jamg'armalardan jalb qilingan mablag'lar muddatiga mos muddatlarga moliyalashtirilgan mablag'lar (xalqaro moliya institutlari va jamg'armalar bilan tuzilgan shartnomada shartlarni o'zgartirish bo'yicha qo'shimcha shartnoma mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno).

3-bob. Restrukturizatsiya qilish yuzasidan murojaat

7. Qarzdor (yuridik yoki jismoniy shaxs) moliyalashtirilgan mablag'lar bo'yicha to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish imkoniyati cheklangan taqdirda Bankka ariza bilan murojaat qiladi.

Shuningdek Bank tomonidan 30 (o'ttiz) kundan oshgan qarzdorlik bo'yicha qarzdorga ogohlantirish xati yuborib, shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish (restrukturizatsiya) to'g'risida taklif bilan chiqishi ham mumkin.

8. Qarzdor tomonidan shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish (restrukturizatsiya) yuzasidan batafsil sabablari ko'rsatilgan quyidagi hujjatlar arizaga ilova qilinadi:

Agar qarzdor jismoniy shaxs bo'lsa:

- shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi;

- daromad manbalari yoki daromad yo'qligi haqida ma'lumotnoma;

- moliyaviy qiyinchilikni tasdiqlovchi hujjatlar (ushbu Tartibning 5-bandida ko'rsatilgan asos bo'luvchi holatlar);

- garov/kafillikka oid yangilangan ma'lumotlar (zarur bo'lsa);

- kelgusida kutilayotgan tushumlar prognozi.

Agar qarzdor yuridik shaxs bo'lsa:

- qarzdorning ustaviga muvofiq yuridik shaxsning vakolatli boshqaruv organining roziligi bo'yicha qarori (bayonnomasi);

- so‘nggi 12 (o‘n ikki) oy uchun buxgalteriya hisoboti (balans, foyda va zararlar hisobotlari, pul oqimi hisobotlari);
- qisqa va uzoq muddatli qarzдорliklar bo‘yicha ma‘lumotnoma;
- moliyaviy qiyinchilikni tasdiqlovchi hujjatlar (ushbu Tartibning 5-bandida ko‘rsatilgan asos bo‘luvchi holatlar);
- qarzдорning restrukturizatsiya bo‘yicha taklifi (muddat, Bank daromadi miqdori bo‘yicha o‘zgartirish rejasi);
- hisobvaraқ aylanmalari to‘g‘risida bank ma‘lumotnomasi (so‘nggi 6 (olti) oy);
- kafillar yoki ta‘sischilar tomonidan taqdim etilgan kafolat xatlari (buning asosida agar kafillik rasmiylashtirilsa);
- soliq organlaridan qarzдорlik holati haqida ma‘lumotnoma.

Zarur deb hisoblagan hollarda Bank tomonidan qo‘shimcha hujjatlar (biznes-reja, kutilayotgan tushumlar prognozi, audit xulosasi va shu kabilar)ni talab qilishi mumkin.

9. Tabiiy ofat, o‘lim, nogironlik, oila boquvchisining vafoti va boshqa favqulotda holatlarida restrukturizatsiya bo‘yicha Bank minimal hujjatlar talab qilish orqali soddalashtirilgan tartibini qo‘llashi mumkin.

10. Ariza va hujjatlar ro‘yxatga olinadi hamda axborot tizimida qayd etiladi.

11. Hujjatlar to‘liq qabul qilingan kundan e‘tiboran ariza Bank tomonidan 10 (o‘n) ish kuni ichida, murakkab holatlarda 20 (yigirma) ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi.

12. Restrukturizatsiya qilish haqida qaror qabul qilishdan avval qarzдорning to‘lovga qobiliyati PTI (mijozning oylik to‘lovi uning daromadiga nisbati), DTI (mijozdagi barcha qarz to‘lovlarining jami uning daromadiga nisbati) ko‘rsatkichlari orqali baholanadi. PTI 50 (ellik) foizdan DTI 60 (oltmish) foizdan oshmasligi kerak (ipoteka uchun alohida ko‘rsatkichlar belgilanadi).

13. Ariza ko‘rib chiqilayotgan davrda qarzдор uni qaytarib olish huquqiga ega.

4-bob. Arizani ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish

14. Bank qarzдор taqdim etgan ma‘lumotlar asosida moliyaviy holatni baholaydi va restrukturizatsiya imkoniyatini tahlil qiladi.

15. Qaror Bankning Moliyalashtirish qo‘mitasi tomonidan 10 (o‘n) ish kuni ichida qabul qilinadi.

16. Qaror natijasi to‘g‘risida qaror qabul qilingandan so‘ng qarzдорga 1 (bir) ish kuni ichida xabarnoma yuboriladi.

5-bob. Homiladorlik va tug‘ish ta‘tilida bo‘lgan ayollarning to‘lovlar muddatini uzaytirish

17. Qarzдор (ayol) homiladorlik yoki tug‘ish ta‘tiliga chiqqani holati yuzasidan Bankka ariza bilan murojaat qiladi.

18. Arizaga shaxsini tasdiqlovchi hujjat nusxasini, ish joyidan ta'til to'g'risida ma'lumotnomani/yoki FHDYOdan guvohnomani, amaldagi shartnoma nusxasini, ta'til davrida daromad/nafaqa haqida ma'lumotni ilova qilinadi.

19. Bank tomonidan ariza 5 (besh) ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

20. Bank tomonidan barcha taqdim qilingan hujjatlar o'rganib chiqiladi va taqdim qilingan hujjatlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilganidan so'ng to'lovlar muddatini 10 (o'n) oygacha uzaytirilishi yuzasidan shartnoma shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

21. Uzaytirish faqat ta'til davriga amalga oshiriladi va shartnomada ko'rsatilgan tartibda Bank daromadi hisoblab boriladi. Bunda qarzdor bilan qo'shimcha kelishuv tuziladi, yangilangan to'lov grafigi tuziladi.

Qo'shimcha kelishuv imzolangandan so'ng 1 (bir) ish kuni ichida restrukturizatsiya natijasida qarzdorning umumiy xarajatlari va yangi to'lov grafigi qarzdorga taqdim etiladi.

6-bob. Qaror ijrosi va hujjatlashtirish

22. Bank tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda amaldagi shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuziladi va unda yangi to'lov grafigi, Bank daromadi miqdori, ta'minot shartlari va amal qilish muddati belgilanadi. Qo'shimcha kelishuv tomonlar imzolagan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

23. Restrukturizatsiya to'g'risidagi ma'lumotlar qonunchilikka muvofiq kredit axborotining davlat reestri hamda kredit byurosiga taqdim etiladi va qarzdorga kredit tarixiga ta'siri oldindan ma'lum qilinadi.

24. Qarz oluvchi restrukturizatsiyadan keyin ham to'lovlarni muddatidan oldin to'liq yoki qisman to'lash huquqiga ega. Bunda qo'shimcha jarimalar qo'llanilmaydi.

7-bob. Hisob, monitoring va nazorat

25. Restrukturizatsiya qilingan qarzdorlar hisobi alohida yuritiladi, har oy monitoring qilinib boriladi. Restrukturizatsiya shartlar buzilsa Bank qarzdordan moliyalashtirilgan mablag'larni muddatidan oldin qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

8-bob. Yakuniy qoidalar

26. Mazkur Tartib talablariga rioya qilmanmagan hollarda aybdorlar/mas'ullar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

27. Mazkur Tartibga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi.

28. Mazkur hujjat bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

29. Ushbu Tartibning alohida bandlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va

qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchik hujjatlari normalariga amal qilinadi.